

**"Butunjahon pul haftaligi" (Global Money Week) doirasida "Kapitalbank" ATB tomonidan "Mening ishim" tanlovi.**

1.1. Ushbu Nizom bolalar uchun "Mening ishim" biznes g'oyalari tanlovini (keyingi o'rinnlarda - Tanlov) o'tkazish tartibi va shartlarini belgilaydi.

1.2. Tanlov tashkilotchisi - "Kapitalbank" ATB O'zbekiston Markaziy banki bilan hamkorlikda.

1.3. Tanlov Butunjahon pul haftaligi - Global Money Week ga bag'ishlangan bo'lib, uning asosiy maqsadi yoshlar o'rtasida jamg'arish madaniyatini shakllantirish va moliyaviy savodxonligini oshirishdir.

2021-yilda Butunjahon pul haftaligi 22-28 mart kunlari bo'lib o'tadi. Tanlov 19.03.2021 dan 02.04.2021 gacha bo'lib o'tkaziladi

2.1. Tanlov maqsadlari:

Jamg'arma madaniyatini shakllantirish, bilimlarni tarqatish va aholining, ayniqsa bolalar va yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, yoshlar ijodkorligini qo'llab-quvvatlash.

2.2. Tanlovning vazifasi:

- Tanlovda imkon qadar ko'proq bolalar va yoshlarning ishtirokini ta'minlash.
- Tanlov ishtirokchilarining ishlarini baholash uchun adolatli ovoz berishni tashkil etish.
- Tanlovni axborot bilan ta'minlashni tashkil etish.

3.1. Tanlov 7-15 yoshdagi bolalar o'rtasida o'tkaziladi.

3.2. Tanlovda alohida nominatsiyalar ajratilishi mumkin.

3.3. Bank xodimlarining qarindoshlari Tanlovda ishtirok etishlariga yo'l qo'yilmaydi.

4.1. Tanlov mavzusi: "Mening ishim".

4.2. Tanlovga ma'lumot beruvchi rasmlar, matnlar, slayd-shouular ko'rinishidagi taqdimotlar formatidagi loyihalar qabul qilinadi.

4.3. Loyihalar qog'oz va elektron shaklda bajarilishi mumkin.

4.4. Tanlovga taqdim etilgan loyihalarning mazmuni ushbu "Mening ishim" mavzusiga mos kelishi kerak.

4.5. Rasmlar ota-onalar yoki o'qituvchilar yordamisiz bajarilishi kerak.

4.6. Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi ishlar qabul qilinmaydi:

- Tanlov mavzusiga aloqador bo'limgan;

- Internetdan yuklab olingan boshqa odamlarning rasmlari va illyustratsiyalari, matnlar, taqdimotlar.

Muvofiqlik to'g'risida qaror tanlov Tashkilotchisi tomonidan qabul qilinadi.

4.7. Loyihaga bolaning ismi, familiyasi, yoshi, yashash shahri ilova qilinishi kerak.

5.1. Loyihalar Tanlov Tashkilotchisi tomonidan ushbu Nizomning 4-qismida ko'rsatilgan Tanlov ishtirokchilarining ishlariga qo'yiladigan talablarga muvofiqligi tekshiriladi va hakamlar hay'atiga taqdim etiladi.

5.2. Loyihalar 2021-yil 1-aprel soat 00:00 dan kechiktirmay, bolaning familiyasi, ismi, yoshi va yashash shahri ko'rsatilgan holda @Kapitalbank\_uz\_feedback\_bot Telegram kanalida qabul qilinadi.

6.1. Tanlov 2021-yil 19-martdan 2-aprelgacha o'tkaziladi.

7.1. Ishlari Tanlovnинг hakamlar hay'ati tomonidan tanlangan ishtirokchilar Tanlov g'oliblari hisoblanadi.

8.1. Barcha huquqlar mualliflarga tegishli. Tanlov tashkilotchisi tanlovga taqdim etilgan ishlarni OAV, ijtimoiy tarmoqlarda, bosma materiallarda nashr etish, nashrlar va reklama uchun foydalanish, shuningdek ko'rgazmalarda namoyish etish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tanlovga ishlarni yuborish orqali muallif Tanlov shartlariga o'z roziligini tasdiqlaydi.

9.1. Tanlov natijalari Tashkilotchi tomonidan tasdiqlanadi.

9.2. G'oliblarga quyidagi sovg'alar topshiriladi:

- 1-o'rin - smartfon;

- 2-o'rin - planshet;

- 3-o'rin - aqlli soat.

9.3. Tashkilotchi tomonidan mukofot qiymatining naqd pul shaklidagi ekvivalenti to'lanmaydi.

9.4. Tanlov natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar Tashkilotchining rasmiy saytida va ijtimoiy tarmoqlarida joylashtiriladi. Barcha laureatlar mukofotlash marosimida ishtirok etishga taklif qilinadi.

9.5. Taqdirlash marosimining vaqtি va joyi keyinroq ma'lum qilinadi.

9.6. Tashkilotchi tanlov haqida qo'shimcha ma'lumotlarni nashr etish va tanlov shartlarini bir tomonlama o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.